Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 17-may, № 96 (8719) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

SAN’AT VA MADANIYATGA E’TIBOR MA’NAVIYATI YUKSAK AVLODNI TARBIYALASHNING MUHIM SHARTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 16-may kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykalining ochilish marosimida ishtirok etdi, madaniyat va san’at sohasidagi yangi maskan va loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari milliy estrada san’ati asoschisi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov haykali ochilishi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda san’at muxlislarini qizg‘in tabrikladi.

— Bugun yurtimizda katta shodiyona — san’at va madaniyat bayrami. Azim Toshkent shahrining qoq markazida xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlab muazzam haykal ochilmoqda. Mana shu quvonchli voqea munosabati bilan siz, azizlarni, rahmatli Botir Zokirovning yaqinlari, shogird va muxlislarini, butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman, — dedi Prezident.

Botir Zokirov 1936-yilda san’atkorlar oilasida tug‘ilib, voyaga yetgan. 29 yoshida O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘lgan. 2000-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” va 2021-yilda “El-yurt hurmati” ordenlari bilan mukofotlangan.

Davlatimiz rahbari xonandaning benazir iste’dod va insoniy fazilatlarini e’tirof etdi.

Botir Zokirov juda qisqa — 49 yil umr ko‘rgan. Lekin shu yillar davomida o‘zidan rang-barang va boy ijodiy meros qoldirgan. Uning sehrli ovozi yurtimizdagi har bir xonadonga kirib borib xalqimiz qalbidan, san’atimizning oltin fondidan joy olgan. Dunyoning madaniyat poytaxtlarida o‘zbek san’atini zo‘r muvaffaqiyat bilan namoyish etgan.

Xonanda 1955-yilda, ayni kuchga to‘lgan paytida og‘ir dardga yo‘liqadi. Bir necha marta jarrohlik amaliyotlarini boshidan o‘tkazadi. Shifokorlar unga qo‘shiq aytishni taqiqlab qo‘yadi. Lekin shu ahvolda ham ijoddan, kuylashdan to‘xtamaydi.

Botir Zokirov umr bo‘yi yangilikka intilib yashardi. Sharq folklori va zamonaviy estrada san’atini uyg‘unlashtirib, “Myuzik-xoll” ijodiy jamoasini tashkil etgan, xonanda va kompozitor sifatida ko‘plab iste’dodli yoshlarga ustozlik qilgan. Respublikamizda xizmat ko‘rsatgan “Yalla” ansamblining tashkil topishida Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir.

Buyuk san’atkorning so‘nmas xotirasini e’zozlash, ijodiy merosini o‘rganish bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda. Xususan, Prezident qarori qabul qilinib, 2021-yilda Botir Zokirovning 85 yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi. Ulug‘ hofiz nomidagi milliy mukofot ta’sis etildi. U haqda ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratildi. Yaqinda Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan atoqli san’atkorlar ishtirokida katta shodiyona sifatida o‘tkazildi.

➡2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON XALQ ARTISTI BOTIR ZOKIROV HAYKALINING OCHILISHIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrli vatandoshlar!

Hurmatli madaniyat va san’at namoyandalari!

Bugun yurtimizda katta shodiyona — san’at va madaniyat bayrami. Azim Toshkent shahrining qoq markazida xalqimizning ardoqli farzandi, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlab muazzam haykal ochilmoqda.

Mana shu quvonchli voqea munosabati bilan siz, azizlarni, rahmatli Botir Zokirovning yaqinlari, shogird va muxlislarini, butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Muhtaram do‘stlar!

Muqaddas yurtimiz zaminidan asrlar davomida ne-ne buyuk alloma va shoirlar, adib va me’morlar, muhandis va rassomlar, hofiz va bastakorlar yetishib chiqqanini yaxshi bilamiz. XX asrda ana shunday ulug‘ zotlarning munosib davomchisi bo‘lib Botir Zokirov san’at maydoniga chiqdi.

Barchamizga ma’lumki, u O‘zbekiston xalq artisti Karim Zokirov va xonanda Shohista Saidova oilasida, ziyoli bir muhitda tug‘ilib, voyaga yetgan edi.

Taqdir Botir Zokirovning zimmasiga o‘zbek estrada san’atining asoschisi bo‘lishdek ulug‘vor bir vazifani yukladi va bu vazifani u sharaf bilan ado etdi.

U san’at olamiga qadam qo‘yganida respublika va sobiq ittifoq sahnalarida biri-biridan buyuk va betakror xonandalar shuhrat cho‘qqisiga ko‘tarilib ulgurgan edi. Ana shunday mashhur san’at darg‘alari orasida munosib o‘rin egallash oson emas edi.

Ammo Alloh taoloning o‘zi Botir Zokirovga ato etgan benazir iste’dod va insoniy fazilatlar tufayli u san’at olamida chinakam mo‘jizalar yaratdi.

Bunday yuksak darajaga erishish uchun u avvalo xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga, mumtoz musiqa merosimiz, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayandi.

Botir Zokirov hayot mashaqqatlaridan qo‘rqmaydigan, har qanday sharoitda ham faqat ezgu maqsad sari intiladigan beqiyos iroda va matonat sohibi edi.

Xonanda 1955-yilda, ayni kuchga to‘lgan paytida og‘ir dardga yo‘liqdi. Xastalik tufayli bir necha marta g‘oyat murakkab tibbiy operatsiyalarni boshidan o‘tkazdi. Shifokorlar hofizning hayotini saqlab qolish uchun unga qo‘shiq aytishni taqiqlashga majbur bo‘ldilar.

Ammo **“Kuylamoq — yashamoq demakdir”** degan e’tiqodni hayot mazmuni deb bilgan, ismi jismiga mos o‘zbek o‘g‘loni qo‘shiq aytishdan to‘xtamadi. Qalbidagi ezgu tuyg‘ularni yanada to‘lib-toshib kuyladi. Hech shubhasiz, bunday jasorat, san’atga bunday fidoyilik cheksiz hayrat va tahsinga loyiqdir.

Aziz yurtdoshlar!

Botir Zokirov yashab ijod qilgan murakkab zamonda uning iste’dodi, shon-shuhratiga g‘arazli ko‘z bilan qaraydigan kimsalar ham, afsuski, yo‘q emasdi. Lekin hayotni kurash maydoni deb bilgan bu matonatli inson barcha to‘siqlarni mardona yengib o‘tdi.

Betakror hofizning billurdek tiniq ovozida xalqimizning asriy orzu-armonlari, yorug‘ kunlarga ishonchi baralla yangradi. U qisqa muddatda sobiq sho‘ro makonida millionlab ixlosmandlarga ega bo‘lgan sevimli san’atkorga aylandi. Botir Zokirov SSSRdagi barcha yirik shaharlar, dunyoning manaman degan madaniyat poytaxtlarida o‘zbek san’atini zo‘r muvaffaqiyat bilan namoyish etdi.

Xonandaning ijodiy repertuari uning go‘zal va hassos qalbi singari keng edi. Uni hindlar — hind deb, fransuzlar — fransuz, arablar — arab qo‘shiqchisi deb qabul qilishar edi.

Ayniqsa, 1966-yili Parijga qilgan ijodiy safari Botir Zokirovga olamshumul shuhrat keltirdi. Ushbu shahardagi mashhur “Olimpiya” teatri sahnasiga ko‘tarilib, ikki marta kuylash — e’tibor bering, ikki marta kuylash — dunyoda kamdan-kam ijrochiga nasib etgan. Noyob iste’dodi bilan jahonni zabt etgan bunday afsonaviy san’atkorimiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi.

Qadrli marosim qatnashchilari!

Botir Zokirov juda qisqa — bor-yo‘g‘i 49 yil umr ko‘rdi. 29 yoshida O‘zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo‘ldi. Salkam 30 yillik faoliyati davomida o‘zidan rang-barang va boy ijodiy meros qoldirdi. O‘lmas hofizimizning sehrli ovozi yurtimizdagi har bir xonadonga kirib borib san’atimiz oltin fondidan, xalqimiz qalbidan mustahkam o‘rin egalladi.

U umr bo‘yi yangilikka intilib yashagan, izlanishdan charchamaydigan, odamlarga mehribon, oliyjanob bir inson edi. Sharq folklori va zamonaviy estrada san’atini uyg‘unlashtirib, “Myuzik-xoll” ijodiy jamoasini tashkil etgani, xonanda va kompozitor sifatida ko‘plab iste’dodli yoshlarga mehr ko‘rsatib ustozlik qilganini alohida ta’kidlash lozim.

Xususan, respublikamizda xizmat ko‘rsatgan “Yalla” ansamblining tashkil topishida Botir Zokirovning xizmatlari beqiyosdir. Mana, 50 yildirki, ushbu musiqiy jamoa va uning rahbari, 6 ta mamlakatning “Xalq artisti” degan sharafli unvonga sazovor bo‘lgan mashhur xonandamiz Farrux Zokirov jonajon O‘zbekistonimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etib kelmoqda.

Bugungi davramizda O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Zokirovani, Ravshan va Bahodir Zokirovlarni, Zokirovlar sulolasining boshqa ko‘plab vakillarini ko‘rib turganimdan xursandman. Ayniqsa, Gavhar Zokirovaning ma’naviyatimiz fidoyisi sifatida ko‘plab shahar-qishloqlarimizni kezib amalga oshirayotgan ezgu ishlari, yosh avlod tarbiyasi yo‘lidagi katta xizmatlari uchun chin qalbimdan tashakkur bildiraman.

Muhtaram do‘stlar!

Botir Zokirov tom ma’noda vatanparvar inson edi. Ona O‘zbekistonimizni, azim Toshkentni cheksiz farzandlik mehri bilan sevar, mahoratli rassom, talantli adib va aktyor sifatidagi faoliyatida ham Vatanga muhabbat tuyg‘usi jo‘sh urib turar edi.

U o‘tgan asrning 70-yillarida xalq qahramoni Spitamen haqida “So‘g‘d elining qoploni” opera librettosini yaratgan va bu asar Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan edi.

Bularning barchasi Botir Zokirovning olmosdek serqirra iste’dod egasi bo‘lganini tasdiqlaydi.

Hurmatli yurtdoshlar!

Inson qadrini ulug‘lash — Yangi O‘zbekiston siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Ayni shu maqsadda buyuk san’atkorimiz Botir Zokirovning so‘nmas xotirasini e’zozlash, uning ijodiy merosini o‘rganish bo‘yicha mamlakatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2021-yili alohida qaror qabul qilinib, xonandaning 85 yillik tavallud ayyomi keng nishonlandi.

Botir Zokirov tahsil olgan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan mana shu go‘zal va obod ko‘chaga u kishining tabarruk nomi berildi. Ulug‘ hofizimiz nomidagi milliy mukofot ta’sis etildi, estrada ijrochilarining respublika ko‘rik-tanlovi muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Botir Zokirov haqida ilmiy va badiiy asarlar, hujjatli film va spektakllar yaratilmoqda, ilmiy anjumanlar, ijodiy uchrashuv va kechalar o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida, ko‘rib turganingizdek, Botir Zokirov nomidagi milliy estrada san’ati instituti barpo etildi. Ushbu oliygohda tahsil olayotgan navqiron yoshlarimiz orasidan Botir Zokirov kabi ulug‘ san’atkorlar albatta yetishib chiqadi, deb ishonamiz va ularning barchasiga omad va zafarlar tilaymiz.

Yaqinda Botir Zokirovning xotira kechasi mamlakatimiz jamoatchiligi hamda xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan, u kishining do‘stlari bo‘lmish atoqli san’atkorlar ishtirokida katta shodiyona sifatida o‘tkazildi.

Ushbu musiqiy anjuman xalqimizning o‘z ardoqli farzandiga bo‘lgan yuksak ehtiromining yana bir yorqin namoyoni bo‘ldi.

Muhtaram do‘stlar!

Albatta, bugun sizlarning ishtirokingizda ochilayotgan ushbu muhtasham haykal Botir Zokirov xotirasiga o‘rnatilgan ramziy bir timsoldir.

Ayni paytda Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’atni ravnaq toptirish yo‘lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug‘ ijodkorga eng munosib yodgorlik bo‘ladi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Hozirgi kunda yurtimizdagi yuzlab musiqa va san’at maktablarida, texnikum va kollejlar, madaniyat yo‘nalishidagi institutlarimizda, konservatoriyamizda minglab iste’dodli yoshlarimiz bilim va tarbiya olmoqda. Biz ana shunday iqtidorli o‘g‘il-qizlarimizni milliy san’atimiz vorislari, barkamol, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazsak, atoqli san’atkorimizning ruhi albatta shod bo‘ladi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san’atimiz tarixida butun boshli bir davrni tashkil etadi.

Ulug‘ san’atkorimizning xotirasini abadiylashtirish, boy merosini chuqur o‘rganish va jahon miqyosida targ‘ib qilish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ushbu masala bo‘yicha yangi qaror loyihasini tayyorlash topshiriladi.

Qarorda, jumladan, Toshkent shahrida Botir Zokirov memorial muzeyini barpo etish, estrada san’ati bo‘yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko‘rik-tanlov tashkil qilish, madaniyat va san’at oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun Botir Zokirov nomidagi davlat stipendiyasini joriy etish, “Botir Zokirov” badiiy filmini yaratish, Botir Zokirov nomidagi jamg‘arma va Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar ko‘zda tutilishi lozim.

Fursatdan foydalanib, ushbu hududni obod etishga munosib hissa qo‘shgan barcha yurtdoshlarimizga, qo‘ligul quruvchi va muhandislar, haykaltarosh va me’morlarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Barchangizni bugungi shodiyona kun bilan yana bir bor tabriklayman. Bu joy poytaxtimiz aholisi va mehmonlari uchun qutlug‘ ziyoratgohga aylanadi, deb ishonaman.

Dunyoga Botir Zokirovdek buyuk zotlarni bergan xalqimiz omon bo‘lsin!

Milliy san’atimiz doimo gullab-yashnasin!

MALAYZIYA BOSH VAZIRI RASMIY TASHRIF BILAN O‘ZBEKISTONGA KELADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim 17 — 19-may kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ladi.

Tashrifning birinchi kunida Toshkent shahrida oliy darajadagi tadbirlar va muzokaralar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Sammit kun tartibidan tizimli siyosiy muloqotni rivojlantirish va madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish, savdo, innovatsiyalar, energetika, neft-kimyo, sanoat, elektrotexnika va elektronika, qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyotning boshqa sohalarida aniq kooperatsiya dasturlari va loyihalarini ilgari surish masalalari o‘rin olgan.

Bundan tashqari, xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi.

Malayziya Hukumati rahbari Samarqand va Buxoro shaharlariga ham tashrif buyurib, xalqimizning boy madaniy-tarixiy va ma’naviy merosi bilan tanishadi, qo‘shma biznes forumida ishtirok etadi.

O‘zA.

O‘zbekiston — Malayziya:

O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O‘zbekistonga tashrifi arafasida mamlakatimizning Kuala-Lumpur shahridagi elchisi Karomiddin GADOYEV “Dunyo” AA uchun intervyu berdi va unda ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning bugungi holati hamda istiqbollari haqidagi fikrlarini bildirdi:

— O‘zbekiston va Malayziya keng qamrovli muloqotni jadal va samarali rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Joriy yil 17 — 19-may kunlari Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning O‘zbekistonga tashrifi rejalashtirilgan bo‘lib, u turli sohalardagi hamkorlikni faollashtirish va ustuvor yo‘nalishlarda yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi geografik masofaga qaramay mamlakatlarimizni tarixiy rishtalar, madaniy va diniy o‘xshashlik, an’analarning yaqinligi, bag‘rikenglik va xilmaxillik kabi umumiy qadriyatlar bog‘lab turadi.

Bu yil rasmiy Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 32 yil to‘ldi. Malayziya 1992-yil 1-yanvarda O‘zbekiston mustaqilligini Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ichida birinchi bo‘lib tan olgan.

1992 va 2005-yillarda Malayziyaga, 1993 — 2008-yillarda O‘zbekistonga oliy darajadagi rasmiy tashriflar almashinuvi doirasida do‘stona munosabatlar va o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish poydevori qo‘yildi.

➡3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 17-may

SAN’AT VA MADANIYATGA E’TIBOR MA’NAVIYATI YUKSAK AVLODNI TARBIYALASHNING MUHIM SHARTI

1

Botir Zokirov tahsil olgan O‘zbekiston davlat konservatoriyasi joylashgan ko‘chaga u kishining tabarruk nomi berildi. Ushbu konservatoriya huzurida Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti barpo etildi. Endi bu yerda haykal o‘rnatilishi majmuaga yanada ko‘rk bag‘ishladi.

— Bu haykal Botir Zokirov xotirasiga o‘rnatilgan ramziy bir timsoldir. Ayni paytda Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’atni ravnaq toptirish yo‘lida olib borayotgan barcha islohotlarimiz va ularning amaliy natijalari bu ulug‘ ijodkorga eng munosib yodgorlik bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Botir Zokirov ijodiy fenomeni milliy san’atimiz tarixida butun bir davrni tashkil etishi ta’kidlandi. Uning boy merosini chuqur o‘rganish va xalqqa yetkazish ishlarini davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasiga alohida qaror tayyorlash topshirildi. Unda Toshkent shahrida san’atkorning memorial muzeyini barpo etish, estrada san’ati bo‘yicha Botir Zokirov nomidagi xalqaro ko‘rik-tanlov va talabalar uchun davlat stipendiyasi joriy etish, badiiy film yaratish, Botir Zokirov nomidagi jamg‘arma va Milliy estrada simfonik orkestri faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash kabi vazifalar ko‘zda tutiladi.

Marosimda Botir Zokirovning izdoshlari, san’at va madaniyat namoyandalari so‘zga chiqdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada instituti faoliyati bilan tanishdi.

Bu ta’lim maskani davlatimiz rahbarining 2020-yil 2-dekabrdagi qarori asosida, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligi doirasida tashkil etilgan edi. Madaniy va ilmiy merosdan foydalanib, milliy estrada san’atini rivojlantirish, mohir ijrochilar va pedagoglar tayyorlash, zamonaviy kuy-qo‘shiqlar yaratish institutning asosiy vazifalaridir.

O‘tgan yili institut uchun 500 o‘rinli yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu yerda o‘qish va ijod uchun barcha sharoit yaratilgan. Auditoriyalar zarur musiqa anjomlari va texnikalar bilan jihozlangan.

Institutda estrada vokal san’ati, cholg‘u ijrochiligi, texnogen san’at, bastakorlik san’ati, san’atshunoslik, dirijyorlik kabi yo‘nalishlarda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bugungi kunda 479 nafar talaba tahsil olmoqda. Ularga professor-o‘qituvchilar, xalq artistlari dars beradi.

Prezidentimiz dars jarayonlarini kuzatdi, o‘qituvchi va talabalar bilan muloqot qildi.

— Avvalo, mana shunday dargoh bilan sizlarni, butun san’atsevar yoshlarimizni tabriklayman. Biz bu ishlarni nima uchun qilyapmiz? San’atimizning buyuk merosini, yoshlarimizning nimalarga qodirligini dunyoga tarannum etish uchun. Institutga milliy san’atimizda fenomen bo‘lgan Botir Zokirov nomini berganimiz ham bejiz emas. Bu yerda uning munosib izdoshlarini tarbiyalashni, iste’dodini yuzaga chiqarishni maqsad qilganmiz, — dedi davlatimiz rahbari.

O‘quv yurti kutubxonasida sakkiz ming-dan ortiq adabiyot va notalar jamlangan. Milliy estrada bo‘yicha ilmiy, amaliy va ijodiy izlanishlar olib borish uchun tadqiqot markazi ham tashkil etilgan.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Kinochilar saroyini ham borib ko‘rdi.

Ushbu maskan 2021-yil mukammal ta’mirlanib, sharoitlari yangilandi. Katta-kichik zallar, yozgi kinoteatr va xonalar zamonaviy jihozlandi. Bugun bu yerda jami 3 ming nafar tomoshabinni qabul qilish imkoni mavjud.

Davlatimiz rahbari dastlab O‘zbekiston kino san’ati muzeyini ko‘zdan kechirdi. Muzey 1972-yilda tashkil etilgan bo‘lib, ilgari muzey-arxiv sifatida faoliyat yuritgan. Unda ellik mingdan ortiq tarixiy buyum, libos, rasm va kinotasmalar bor.

Endilikda muzey Kinochilar saroyiga ko‘chirilib, ko‘rgazmaga qo‘yildi. Birinchi qavatdagi eksponatlar o‘zbek kinosining tarixi va asoschilari, so‘nggi yillardagi yutuqlariga bag‘ishlangan. Ikkinchi qavatda tarixiy filmlardagi liboslar, atoqli kinoijodkorlar hayoti va faoliyati aks ettirilgan. Ahamiyatlisi, kino ko‘rish istagida kelgan borki, shu tarix bilan tanishib o‘tadi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda rejissyor va aktyorlar, kinoshunoslar, soha mutasaddilari bilan suhbatlashdi.

— So‘nggi yillarda milliy kinomiz qayta “uyg‘ondi”, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Yuqori saviyali, zamonaviy sifatli filmlar paydo bo‘ldi. Buning uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman. Shu bilan birga, kinematografiyani rivojlantirish uchun yana nimalar qilishimiz kerak, degan savol meni o‘ylantiradi. Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo‘lsak, xalqimizning milliy g‘ururini ko‘tarmoqchi bo‘lsak, buni, birinchi navbatda, kino yordamida amalga oshirishimiz kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Muloqotda Prezidentimiz tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Tirik tarix” turkumidagi filmlar loyihasi taqdimot qilindi.

Bu 2024 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategik dastur bo‘lib, eng qadimgi o‘tmishimizdan tortib, yaqin tariximizgacha bo‘lgan juda katta davrni qamrab oladi. Yaratilajak filmlarning mavzusi keng va rang-barang.

Jumladan, Miloddan avvalgi VI asrda yashagan milliy qahramonimiz Shiroq haqida, milliy davlatchiligimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Alp Er To‘nga, sohibqiron Amir Temur va temuriylar haqida, shu paytgacha yetarli o‘rganilmagan shayboniylar haqida, qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz va boshqa mashhur adiblar haqida, buyuk allomalarimiz va milliy istiqlol kurashchilari haqida hikoya qilinishi ko‘zda tutilgan.

Loyihada chet ellik hamkorlar, xususan, Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Rossiya, Belarus, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Hindiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston kabi davlatlarning kino san’ati ustalari ham ishtirok etishi rejalashtirilgan.

— Albatta, bu dastur va g‘oyalarni amalga oshirish uchun ko‘p moddiy imkoniyat talab etilishini, yuzlab iste’dodli mutaxassislar zarurligini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz tom ma’nodagi ulkan, tarixiy bu loyihaning moliyaviy masalalarini hal qilamiz. Nega deganda, ushbu dastur shonli o‘tmishimizni chuqur anglab, shu asosda kelajakka ishonch bilan dadil qadam qo‘yishga, yoshlarni chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalab, uchinchi Renessansni barpo etishga katta turtki bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muloqotda kinoijodkorlar mazkur turkum filmlar va sohani rivojlantirish yuzasidan takliflarini bildirdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘zA muxbirlari.

Muloqot

ISTIQBOLLI YO‘NALISHLAR BO‘YICHA FIKR ALMASHILDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi Martin Chungong bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqot chog‘ida Oliy Majlis Senati va Parlamentlararo Ittifoq hamkorligining amaliy jihatlari muhokama qilindi. Xususan, 2025-yili O‘zbekistonda o‘tkaziladigan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasining tashkiliy jarayonlari yuzasidan fikr almashildi.

Assambleya parlamentlar o‘rtasida xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha o‘zaro tajriba almashish, O‘zbekiston parlamenti faoliyati bilan tanishish, 2030-yilgacha bo‘lgan strategiyani amalga oshirishda parlamentlarning ishtirokini faollashtirish, BRMga erishish yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun muhim platforma bo‘lishi alohida qayd etildi.

Shuningdek, yurtimizda o‘tkaziladigan assambleya inson huquqlari, gender tenglik, yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda parlamentlar hamkorligini kuchaytirishga xizmat qilishi ta’kidlab o‘tildi.

Uchrashuv yakunida hamkorlikni barcha yo‘nalishda yanada faollashtirishga kelishib olindi.

IQTISODIY BARQARORLIK VA ILG‘OR AMALIYOT

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Yevropa komissiyasi Xalqaro hamkorlik bo‘yicha bosh direktoratining Inson taraqqiyoti, migratsiya, boshqaruv va tinchlik boshqarmasi direktori Erika Gerretsen bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Tomonlar inson taraqqiyoti indeksi, BRMni amalga oshirish, xavfsiz mehnat migratsiyasini tashkil etish kabi sohalarda hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalarini muhokama qildilar.

Ayni chog‘da ushbu muhim yo‘nalishlarni rivojlantirish bilan birga, ijtimoiy inklyuzivlik va iqtisodiy barqarorlik bo‘yicha ilg‘or amaliyot va tajriba almashish, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari hamda kambag‘allikka qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik qilish yuzasidan fikr almashildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Yevropa Ittifoqi tomonidan parlamentarizmni mustahkamlash bo‘yicha “Inter Pares” global dasturi loyihasi doirasida amalga oshiriladigan ishlarni faollashtirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

PARLAMENTLARARO ALOQALARNI O‘RNATISH MASALASI DIQQAT MARKAZIDA BO‘LDI

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Kipr Respublikasi tashqi ishlar vaziri Konstantinos Kombos bilan muzokara o‘tkazdi.

Suhbat chog‘ida ikki davlat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni kengaytirish, parlamentlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yish masalalari diqqat markazida bo‘ldi.

Muloqot davomida davlatlararo munosabatlar faollashuvining amaliy ifodasi sifatida parlamentlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Oliy Majlisning Kipr Vakillar palatasi bilan muloqotini barcha darajada tizimli va samarali yo‘lga qo‘yish, shuningdek, xalqaro parlament tuzilmalari doirasida konstruktiv hamkorlikni o‘rnatish bo‘yicha kelishib olindi.

“Xalq so‘zi”.

HAYOTIY ISLOHOTLAR VA YUTUQLAR E’TIROF ETILDI

Kecha O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Kipr tashqi ishlar vaziri Konstantinos Kombos boshchiligidagi delegatsiya a’zolari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv

Muloqot chog‘ida delegatsiya a’zolariga “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, uning doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ro‘yobga chiqarish borasidagi sa’y-harakatlar hamda ikki palatali parlament faoliyati, qonun ijodkorligi yo‘nalishi, palata qo‘mitalari, komissiyalari hamda deputatlarning asosiy vazifalari to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar berildi.

Konstruktiv ruhda o‘tgan uchrashuvda O‘zbekiston — Kipr o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalarni yanada kengaytirish va uni yangi mazmun bilan boyitish, norma ijodkorligi sohasida tajriba almashish masalalari ham muhokama qilindi.

O‘z navbatida, Kipr tashqi ishlar vaziri K. Kombos so‘nggi yillarda O‘zbekiston barcha sohada tez sur’atlarda rivojlanib borayotgani, bu jarayonda Prezident Shavkat Mirziyoyevning amaliy harakatlari va tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etayotganini ta’kidladi.

Shuningdek, parlamentlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish va mustahkamlash ikki tomon manfaatlariga birdek xizmat qilishi qayd etildi.

Samimiy va do‘stona ruhda o‘tgan uchrashuvda o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga kelishib olindi.

Qonun loyihasi

HAYVONOT DUNYOSI MUHOFAZASINING HUQUQIY ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo‘mitasi tomonidan “Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni asrash, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaratilgan. Xususan, “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun bilan yovvoyi hayvonlar majmuini muhofaza etish va undan foydalanish sohasidagi masalalar batafsil tartibga solingan.

Biroq jamiyatda hayvonlarga, jumladan, uy hayvonlari va qarovsiz hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lish holatlari uchrab turibdi. Aniqlanganidek, ularni chiplash, identifikatsiya, vaksinatsiya va sterilizatsiya qilishning zamonaviy tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Qolaversa, hayvonlarga nisbatan shafqatsizlikka qarshi ko‘rilayotgan choralarni kuchaytirish zarurati sababli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan “Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Nazoratsiz hayvonlarni tutish va vaqtincha saqlash bilan bog‘liq to‘planib qolgan muammolarni bartaraf etish maqsadida ishlab chiqilgan qonun loyihasida uy hayvonlarini ro‘yxatga olish, chiplash, qarovsiz hayvonlarning hisobini yuritish va saqlashga doir normalar o‘z aksini topgan. Hayvonlarga egalik qilish huquqi, ularning mulkdorlari (egalari) yoki mas’ul shaxslarning majburiyatlari aniq qilib mustahkamlanmoqda.

Bundan tashqari, hayvonlarning shafqatsiz munosabatdan himoya qilinishini ta’minlashga vakolatli davlat organlari, ularning huquq va burchlari, vakolatlari belgilanayotir. Eng muhimi, qarovsiz qolgan hayvonlar bilan muomalada bo‘lish qoidalari tartibga solinmoqda. Hayvonlardan ilmiy, o‘quv, tibbiy, biologik, veterinariya, shuningdek, diagnostika maqsadlarida foydalanishni tartibga soluvchi normalar ham qonun loyihasida o‘z aksini topmoqda.

Ishchi guruh a’zolari mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi jamiyatda hayvonlarga nisbatan insonparvarlik madaniyati va mas’uliyat hissi shakllantirilishiga xizmat qilishini ta’kidlashdi. Shuningdek, hayvonlarning hayot kechirishga bo‘lgan tabiiy huquqlari kafolatlanishi, dunyo mamlakatlarining tajribasi va xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini inobatga olishga oid taklif va tavsiyalar bildirildi.

Berilgan fikr-mulohazalar asosida qonun loyihasini yanada takomillashtirishga kelishib olindi.

Qonunchilik palatasida

NAZORAT-TAHLIL YAKUNLARI KO‘RIB CHIQILDI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi tomonidan “Mudofaa ishlari organlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida amalga oshirilgan ishlar holatini nazorat-tahlil tartibida o‘rganish” yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

Qurolli Kuchlar Akademiyasida tashkil etilgan yig‘ilishda kun tartibidagi masala qo‘mita a’zolari, Mudofaa vazirligi rahbariyati hamda mas’ullari ishtirokida muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda Qurolli Kuchlar boshqaruv tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, xususan, yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va raqamlashtirishni yanada takomillashtirish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Mamlakat taraqqiyotining eng muhim hujjati — “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Shundan kelib chiqib, Qonunchilik palatasining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi tomonidan mudofaa ishlari organlarida ushbu vazifalarning ijro etilish holati joylarga chiqqan holda o‘rganilgan edi.

Munozaralar davomida Mudofaa vazirligi tizimida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha ko‘rib chiqildi.

Shuningdek, mudofaa ishlari organlari faoliyatining tahlili natijalari asosida ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish, chaqiriluvchilarga qo‘shimcha qulayliklar yaratishga qaratilgan bir qator masalalar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarini xatlovdan o‘tkazish, ularni bugungi zamon talablari hamda xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish, sohaga joriy etilgan ilg‘or raqamli texnologiyalarning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Yakunda o‘rganish davomida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish, mudofaa ishlari organlari faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha vazifalar belgilangan qo‘mita qarori qabul qilindi.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INNOVATSIYALARGA KENG YO‘L OCHADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo‘mitasi tomonidan “Raqamli texnologiyalar sohasida yoshlar bandligini ta’minlashning zamonaviy yechimi” mavzuida davra suhbati o‘tkazildi.

Davra suhbati

Ta’kidlanganidek, o‘tgan davrda yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan, jumladan, oliy ta’limga kirishdagi kvotalarni oshirish, yangi biznesini boshlamoqchi bo‘lgan, lekin boshlang‘ich kapitalga ega bo‘lmagan yoshlarni imtiyozli kreditlar asosida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, maktablarda IT kasblariga tayyorlash bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi. Masalan, 2023-yilda xalqaro IT sertifikatlari uchun 922 nafar yigit-qiz 1 584 mln. so‘m, joriy yilning birinchi choragida esa 201 nafar yosh 333 mln. so‘m kompensatsiya olgan. O‘tgan yilda xalqaro IT sertifikatiga ega 556 nafar yosh ish bilan ta’minlangan bo‘lsa, 2024-yilning birinchi choragida bu ko‘rsatkich 610 nafarni tashkil etdi.

Davra suhbatida davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, 2024-yilda axborot texnologiyalari sohasida 70 ming yoshni band qilish, qobiliyatli yigit-qizlar aniqlanib, IT kasblarni o‘rganishiga ko‘maklashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham so‘z yuritildi.

Tadbirda so‘z olganlar bugun qishloq joylaridagi yoshlarning AKT sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularga mehnat bozori haqida kengroq ma’lumotlar berib borish, yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha davlat dasturida nazarda tutilgan imtiyozlardan xabardor qilish lozimligini qayd etdilar.

— Raqamli texnologiyalar hayotimizga shunchalik singib ketdiki, bugungi kunda nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, — dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Shohista Turg‘unova. — Shu sababli mamlakatimizda raqamli texnologiyalar bozorining investitsiya jozibadorligini oshirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, sohadagi korxonalarning eksport faoliyatini jadallashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugun ushbu sohada yoshlar bandligini ta’minlash imkoniyatlari yanada kengaygani e’tiborga molik.

Davra suhbatida sohada yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga yechim topish, qonunchilikdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirildi.

“Xalq so‘zi”.

O‘ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLANGAN YER UCHASTKALARIGA EGALIK MEZONLARI BELGILANMOQDA

Kuni kecha bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi majlisida qator qonunlar muhokamadan o‘tkazildi.

Senat qo‘mitasida

Unda senatorlar, mahalliy Kengashlar doimiy komissiyalari raislari, Yoshlar parlamenti hamda qo‘mita huzuridagi ekspertlar guruhi a’zolari, mutasaddi vazirlik va idoralar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Qo‘mita majlisida dastlab yurtdoshlarimiz orasida munozaralarga sabab bo‘lgan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun qizg‘in muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, aholi va tadbirkorlik subyektlarini uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan muammolardan biri ular tomonidan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari, u yerda qurilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish bo‘yicha huquqiy asos mavjud emasligi bilan bog‘liq. Bu boradagi muammolarni hal etish bo‘yicha bir necha bor o‘tkazilgan “bir martalik aksiya” doirasida huquq e’tirof etilishiga qaramasdan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari, u yerda qurilgan bino va inshootlarning soni ko‘pligi, aksiya muddatining qisqaligi va turli xil boshqa sabablarga ko‘ra huquqlar to‘liq e’tirof etilmay qolayotgandi.

Mazkur masala fuqarolar murojaatlarida va ijtimoiy tarmoqlarda ko‘tarilgach, respublika ishchi guruhi tomonidan atroflicha o‘rganildi. Aynan shu o‘rganish jarayonlarida senatorlar ham ishtirok etib, hududlardagi haqiqiy holatga guvoh bo‘ldilar. Shundan kelib chiqib, senatorlar muhokama jarayonida mazkur qonun bu kabi muammolarga yechim topish maqsadida ishlab chiqilganini alohida aytib o‘tdi.

Qonun bilan fuqarolar tomonidan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga, unda qurilgan binolar va inshootlarga huquqlarni e’tirof etish asoslari aniq tartiblar bilan belgilab qo‘yilmoqda.

Shundan so‘ng qo‘mita majlisida “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga giyohvandlik vositalarining, ular analoglarining yoki psixotrop moddalarning, shuningdek, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlanganidek, yurtimizda giyohvandlik moddalari savdosi va iste’moliga qarshi keskin choralar ko‘rilayotgan bo‘lsa-da, og‘ufurushlarning yangicha usul va nayranglar bilan ilg‘or axborot texnologiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlar yordamida jinoiy faoliyatlarini davom ettirish holatlari uchramoqda.

Muhokamadagi qonun bilan giyohvandlik vositalari, ular analoglarini yoki psixotrop moddalarni telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish orqali qonunga xilof holda muomalaga kiritganlik, ushbu jinoyatlarni voyaga yetmaganlarni jalb qilgan holda sodir etganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Bundan tashqari, giyohvandlik vositalarini, ular analoglarini yoki psixotrop moddalarni, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda olganlik, saqlaganlik, tashiganlik yoki jo‘natganlik uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik belgilanmoqda.

Ishtirokchilar tomonidan mazkur qonunning qabul qilinishi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, kuchli ta’sir qiluvchi va zaharli moddalarni targ‘ib yoki reklama qilganlik uchun jazo muqarrarligi prinsipi to‘liq ta’minlanishi, ushbu noqonuniy mahsulotlar savdosi yoshlardan foydalangan holda amalga oshirilishiga chek qo‘yishga xizmat qilishi aytib o‘tildi.

Qonunlar yuzasidan senatorlar va majlis ishtirokchilari qator fikr-mulohazalarini bildirdi.

Yakunda ko‘rilgan masalalar yuzasidan Senat qo‘mitasi qarorlari qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.

Dushanbe shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar Bosh prokurorlarining 5-yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori N. Yo‘ldoshev boshchiligidagi delegatsiya ham qatnashdi.

O‘zbekiston — Malayziya:

O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

1

Shuningdek, tashriflar davomida bir qator istiqbolli sohalarda hukumatlararo hujjatlar imzolangan edi. 2003-yilda Malayziya Podshohi Sayid Sirojuddin O‘zbekistonga tashrif buyurdi.

So‘nggi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar sezilarli darajada mustahkamlandi. Ikki tomonlama hamkorlikda ijobiy natijalarga erishildi, siyosiy muloqot faollashdi, tomonlar xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini faol qo‘llab-quvvatlamoqda, o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalar taraqqiy etyapti.

2023-yil 1-dekabr kuni Dubay shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi doirasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Podshohi Sulton Abdulloh Rioyatuddin Al-Mustafo Billoh Shoh bilan uchrashdi. Ushbu oliy darajadagi muloqot natijalari ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi.

Ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlaridagi do‘stlik guruhlari faoliyati doirasida parlamentlararo aloqalar muvaffaqiyatli rivoj topmoqda. 2023 va 2024-yillarda ikki davlat tashqi ishlar vazirlari o‘zaro tashrif almashdilar. Shu yilning fevral oyida Kuala-Lumpurda O‘zbekiston — Malayziya biznes forumi bo‘lib o‘tdi.

2023-yil oktabr oyida Malayziya turizm, san’at va madaniyat vaziri Tiong King Sing boshchiligidagi delegatsiya Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Jahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasida ishtirok etdi va forum davomida turizm sohasida hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo anglashuv memorandumi imzolandi.

O‘zbekiston va Malayziya tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlarning beshinchi davrasi 2022-yil mart oyida Putrajaya shahrida tashqi ishlar vazirlari o‘rinbosarlari darajasida bo‘lib o‘tdi. Siyosiy maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasini joriy yilda Toshkentda o‘tkazish rejalashtirilgan.

Malayziya O‘zbekistonning ASEAN davlatlari orasida muhim savdo sherigi hisoblanadi. 2023-yilda ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar oshib, 190 million AQSh dollarini tashkil etdi. O‘zbekiston Malayziyaga kimyo, oziq-ovqat, to‘qimachilik mahsulotlari va mevalar eksport qiladi. Malayziyaning asosiy eksporti mashina va transport uskunalari, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlaridan iborat.

So‘nggi yillarda malayziyalik investorlarning O‘zbekistonga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonda Malayziya kapitali ishtirokidagi 33 ta korxona faoliyat ko‘rsatyapti. E’tiborlisi, ularning 16 tasi 100 foiz Malayziya kapitali asosida tashkil etilgan.

O‘zbekiston o‘zining strategik joylashuvi, rivojlangan transport infratuzilmasi va qo‘shni davlatlar bilan mavjud erkin savdo shartnomalari tufayli Malayziya biznesining 80 million aholiga ega Markaziy Osiyo bozoriga kirishi uchun muhim markaz vazifasini o‘tashi mumkin. O‘z navbatida, Malayziya O‘zbek biznesi uchun Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bozorlariga muhim ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, transport aloqasi masalalari alohida e’tiborga loyiq. Bugungi kunda Toshkent va Kuala-Lumpur o‘rtasida “Uzbekistan Airways” AJ va Malayziyaning “Batik Air Malaysia” aviatashuvchisi tomonidan haftasiga 4 ta reys amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatlarimiz Markaziy Osiyo va Malayziya o‘rtasida muqobil transport va logistika yo‘nalishlarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlikni davom ettirishdan manfaatdor.

Ta’lim hamkorlikning yana bir muhim sohasi sanaladi. Xususan, ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalari qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida samarali hamkorlik qilmoqda.

Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning yurtimizga birinchi tashrifi va bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlar O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi iliq hamda do‘stona aloqalarni yangi bosqichga ko‘tarish, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy sohada foydalanilmagan salohiyatni faollashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Tashrif doirasida, shuningdek, ikki tomonlama hukumatlararo hujjatlar, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy shartnomalar imzolanishi kutilmoqda. Bugungi kunda xalqaro diplomatiya va turizm markazi sifatida shuhrat qozongan qadimiy Samarqand shahrida navbatdagi O‘zbekiston — Malayziya biznes forumiga mezbonlik qiladi.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush sifatini oshirish bo‘yicha “Malayziya Madani” konsepsiyasi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bilan hamohang ekani ramziy ma’noga ega. Bu ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ijobiy tajriba almashish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish, balki butun mintaqa va xorijiy hamkorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi formatlarini shakllantirishda ham faol rol o‘ynamoqda. O‘z navbatida, Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN) asoschilaridan biri sifatida mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ishonchim komilki, Toshkentda bo‘lajak oliy darajadagi muloqot bizga “Markaziy Osiyo — ASEAN” formatida yangi hamkorlik platformasini yaratishga imkon beradi.

Shubhasiz, Malayziya Bosh vazirining rasmiy tashrifi ko‘p asrlik do‘stlik, o‘zaro ishonch va anglashuvning mustahkam poydevoriga asoslangan O‘zbekiston — Malayziya hamkorligini siyosat, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport, atrof-muhitni muhofaza etish, ta’lim, innovatsiyalar, madaniyat va xalq diplomatiyasi sohalarida sezilarli darajada faollashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tashrif davomida Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim boshchiligidagi delegatsiya yurtimizning Samarqand va Buxoro kabi dunyoga mashhur tarixiy shaharlarining diqqatga sazovor joylari bilan yaqindan tanishadi.

“Dunyo” AA.
Kuala-Lumpur

DOLZARB G‘OYA VA TASHABBUSLAR

Osiyoda ayollar huquqlari va gender tenglikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi

Samarqand shahri mezbonlik qilgan Osiyo xotin-qizlari forumi tarixiy voqeliklarga boyligi va o‘zaro tajriba almashishda o‘ziga xos muloqot maydoni vazifasini o‘taganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning forum ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida ilgari surilgan dolzarb g‘oya va tashabbuslar pirovardida qit’amiz xotin-qizlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularni davlat va jamiyat ishlariga keng jalb etishda muhim ahamiyatga ega, desak, ayni haqiqat.

Aks sado

Davlatimiz rahbari ayollar iqtisodiy salohiyatini to‘liq ochib berish butun Osiyo qit’asi taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini alohida ta’kidlab o‘tdi. Buning uchun ayollarning davlat boshqaruvi, tadbirkorlik va mehnat bozoridagi ulushini oshirish talab etiladi. Zero, tadbirkor ayollarni ko‘paytirish hamda ularga ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va moliyalashtirishdan foydalanish imkoniyatini yaratish xotin-qizlarning iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat taraqqiyotiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Qolaversa, tabrikda ayollarga yetakchilik va tadbirkorlik ko‘nikmasidan foydalanish uchun platforma va imkoniyatlar berish muhimligi ham qayd etib o‘tildi. Bu bejiz emas. Insoniyat tarixining gullab-yashnagan davrlari va hozirgi rivojlangan davlatlar misolida ayollarning qaror qabul qilish va boshqarishdagi faol ishtiroki jamiyatlar ravnaqi, aholi farovonligiga zamin hozirlaganini kuzatish mumkin. Shu bois keyingi yillarda bu borada O‘zbekistonda dadil qadamlar tashlandi. Natijada parlament va hukumatdagi ayollar soni sezilarli darajada oshirildiki, bu ko‘plab sohalardagi yutuq va natijalarimizga ham asos bo‘layotir.

Bundan tashqari, ayollarga sifatli ta’lim hamda kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlaridan foydalanishi uchun shart-sharoit yaratib berishga sodiqlik izhor etildi. Negaki, opa-singillarimizning ta’lim va tarbiyasiga sarmoya kiritish nafaqat ular hayotini yaxshilaydi, balki jamiyatning uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishi va rivojiga ham turtki beradi. Shu bois O‘zbekistonda keyingi davrda tadbirkor ayollar sonini ko‘paytirish bo‘yicha dadil qadamlar tashlandi. Natijada ishbilarmonlik yo‘nalishidagi ayollar soni ikki baravar ko‘paydi, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikdan foydalanish borasida ham ijobiy natijalar kuzatilmoqda.

So‘nggi yetti yil ichida O‘zbekiston davlat boshqaruvi organlarida xotin-qizlar ulushi muttasil o‘sib, 27 foizdan 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi va Senat a’zolarining esa 25 foizi ayollardir.

> *So‘nggi yetti yil ichida O‘zbekiston davlat boshqaruvi organlarida xotin-qizlar ulushi muttasil o‘sib, 27 foizdan 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi va Senat a’zolarining esa 25 foizi ayollardir.*

Muhimi, bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlar tobora izchillik kasb etmoqda. Ayollarning siyosiy hayotdagi faolligini yanada kuchaytirish maqsadida qonun hujjatlariga siyosiy partiyalardan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlarning eng kam sonini nomzodlar umumiy sonining 30 foizidan 40 foizigacha ko‘paytirishga qaratilgan tegishli o‘zgartirishlar kiritildi. Bu ham, albatta, mamlakatimizning xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish va ularning siyosiy hayotga to‘liq integratsiyalashuviga sodiqligini ko‘rsatib turibdi.

Shuni alohida aytish joizki, davlatimiz rahbari o‘z tabrigida forum ishtirokchilari e’tiborini zaif va ijtimoiy yordamga muhtoj ayollar ehtiyojlariga qaratdi. Shu munosabat bilan ijtimoiy himoya, iqtisodiy yordam va sifatli sog‘liqni saqlash hamda ta’lim olish imkoniyatini beradigan dastur va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi urg‘ulandi. Ehtiyojmand ayollarga g‘amxo‘rlik qilish nafaqat axloqiy majburiyat, balki yanada adolatli va barqaror jamiyat rivojini ham kafolatlaydi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar o‘zining dolzarbligi va hayotiyligi bilan xalqaro hamjamiyat e’tiborini qozondi.

Ishonch bilan ayta olamizki, bu g‘oya va tashabbuslar forumda ko‘rib chiqilgan dolzarb masalalarga ijobiy yechim topishda dasturilamal bo‘ladi. Albatta, ulardan kelib chiqadigan vazifalar ijrosi biz, xalq vakillarining ham zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi.

HAR TOMONLAMA VA BARCHA UCHUN FOYDALI BO‘LGAN FORUM

Samarqand shahrida 13-14-may kunlari muvaffaqiyat bilan o‘tkazilgan Osiyo xotin-qizlari forumini zo‘r qiziqish va diqqat bilan kuzatib bordik. Unda jahon va ayniqsa, Osiyo ayollarining muammolariga, ularni yechish yo‘llariga katta e’tibor qaratildi. O‘zbekistonning xotin-qizlar og‘irini yengillashtirishga, jamiyatda ularning erkaklar bilan tengligini ta’minlashga oid siyosati e’tirof etildi.

Forum yakunida olib borilgan muzokara va muhokamalar natijasi sifatida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilingani, unda xotin-qizlar huquqlari kafolatlarini har tomonlama mustahkamlash va ularni amalda ta’minlash, gender tenglikka erishish, zo‘ravonlikka barham berish, gumanitar huquqni hurmat qilishga qaratilgan maqsadlar aks etgani ham qit’amizda yashayotgan har bir ayolning qalbida umid uchqunlarini alangalatgan bo‘lsa, ajab emas. Zero, deklaratsiyada Osiyo mamlakatlarida XXI asrda har kim tenglik, taraqqiyot va farovonlik sharoitida yashab, adolatli dunyo barpo etish yo‘lida xotin-qizlar va erkaklar birgalikda harakat qiladigan jamiyat shakllanishini ta’minlash vazifasi qo‘yildi.

“Ayol bir qo‘li bilan beshikni tebratsa, ikkinchi qo‘li bilan dunyoni tebratadi”, degan ibora bejiz aytilmagan. Buning ortida ayolning har qanday keng ko‘lamli ishlarga aralasha olishi va katta natijalarga erishish uchun juda ko‘p imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beruvchi ma’no yotadi. Zero, jamiyat va hatto dunyo taraqqiyoti, turli sohalardagi yutuqlarida ayollarning hissasi katta ekani ayni haqiqat.

Afsuski, bugungi dunyoda xotin-qizlarga tovar sifatida qarash yoki sotish uchun foydalanish, ularga nisbatan zo‘ravonlik, zo‘rlik bilan uy xizmatkori sifatida saqlash, ta’lim olish imkoniyatidan mahrumlik kabi muammolar ko‘zga tashlanadi. Osiyo xotin-qizlari forumi ana shu muammolarni bartaraf etish, ayollarning huquq va erkinliklarini kengroq ta’minlash haqida qaror qabul qilgani bilan ahamiyatlidir.

“Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga mintaqaviy yondashuv” mavzuiga bag‘ishlangan forumda Osiyoning yetakchi ayol rahbarlari, 30 dan ortiq xorijiy davlatlardan 81 nafar nufuzli mehmon — Sharqiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlarining ayol a’zolari qatnashgani anjuman nufuzidan dalolatdir.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkillashtirilgan anjuman, *eng avvalo,* mintaqa mamlakatlari yetakchi ayollarining bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvi hamda iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish borasida tajriba almashishga imkon berdi.

Ikkinchidan, forum xotin-qizlarning fan, ta’lim va innovatsion faoliyatdagi ishtiroki hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishi, hozirgi global iqtisodiyotda ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirish, tadbirkorlik, yetakchilik va innovatsiyalarga jalb etish masalalarini muhokamadan o‘tkazish maydoni bo‘lib xizmat qildi.

Uchinchidan, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda xotin-qizlarning ishtiroki masalasi ko‘rib chiqildi.

To‘rtinchidan, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, biznes va jamiyatda ularning ishtirokini rag‘batlantirishda parlamentlarning o‘rni, genderga yo‘naltirilgan budjetlashtirish, moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishda gender tafovutni bartaraf etish, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakliga barham berish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. “Yashil” iqtisodiyotni targ‘ib qilish, iqlim o‘zgarishining mintaqadagi gender muammolarga ta’siri masalasida hamda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ilg‘or tajribasi va innovatsion yondashuvlari ham ko‘rib chiqildi.

Umuman, forum O‘zbekistonning xotin-qizlar manfaatlari, gender tenglikni ta’minlash va oilalar mustahkamligi borasidagi tajribasini xalqaro jamoatchilikka yaqindan tanishtirish va o‘rtoqlashish imkonini berdi.

Aytish joizki, davlatimiz rahbarining kuchli irodasi bilan boshlangan islohotlar siyosati tufayli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma’naviy hayotda, muhim qarorlar qabul qilinishida xotin-qizlarning ishtirokini sezilarli ravishda kengaytirdi. Sohaga doir xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi shakllantirildi, so‘nggi besh yilda 80 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi. Ularning huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza etish masalalari yangi qabul qilingan Konstitutsiya, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda o‘zining to‘liq ifodasini topdi.

> Osiyo ayollari forumi gender tenglikka erishishni tezlashtirish va kambag‘allikni bartaraf etish orqali xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga kuchli turtki beradi. Zero, butun dunyoda ayollarning, xususan, qiz bolaning o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Natijada ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli kuchaydi. O‘zbekiston parlamentida, ijro organlarida ayollar soni ortdi. Bugun vazir, vazir o‘rinbosari, hokim va hokim o‘rinbosari, yirik nodavlat notijorat tashkiloti rahbari lavozimidagi xotin-qizlar sinfi paydo bo‘ldi va yil sayin ular soni ko‘paymoqda.

Hozirgi vaqtda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani, ayniqsa, e’tiborlidir. Bu borada Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta’kidlash joiz. Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

So‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Eng asosiysi, 400 mingdan ko‘p opa-singillarimiz ish bilan ta’minlandi. Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trln. so‘mlik ipoteka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oilalar o‘z uyiga ega bo‘ldi. Bu borada 6,2 ming ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang‘ich badalini to‘lash uchun 200 mlrd. so‘m subsidiya ajratilganini qayd etish lozim.

Ahamiyatlisi, joylarda xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘tgan yilning o‘zida “ayollar daftari” bo‘yicha 1 trln. 234 mlrd. so‘m hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Bugungi kunda xotin-qizlarga ta’lim, ilm-fan bilan shug‘ullanish uchun barcha sharoit yaratildi. Ayollar uchun imtiyozli kreditlar, maxsus kvotalar ajratildi, magistraturada o‘qiydiganlarning shartnoma to‘lovlarini to‘liq Davlat budjetidan qoplashni davlat o‘z zimmasiga oldi. Hozirda oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning yarmidan ko‘pini qizlar tashkil etmoqda. Agar oliy ta’limga qamrovning 2017-yildagi 9 foizni hozirgi 43 foiz qamrov bilan solishtirsak, oliy ta’limda qizlar ulushi keskin ortganini ko‘rishimiz mumkin.

Shuningdek, ayollar shu paytgacha an’anaviy bo‘lgan ta’lim, tibbiyot, tikuvchilik yo‘nalishlaridan tashqari raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari kabi ilg‘or sohalarga faol kirib keldi. Boz ustiga, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xalqimiz genofondini mustahkamlash ustuvor vazifaga aylangan.

Afsuski, dunyoning hamma nuqtasida ham ahvol birdek emas. Jahonning aksariyat mamlakatlari ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishidagi muvaffaqiyatlari bilan maqtana olmaydi, erkak va ayollarning tengligi masalasini o‘rgangan va bu borada hisobot tayyorlagan BMTning Taraqqiyot dasturi va “BMT-Ayollar” tuzilmasi ma’lumotlariga ko‘ra, sayyoramiz ayollarining bir foizdan kamrog‘i gender huquqlar, masalan, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida ta’minlangan davlatlarda yashashadi. Qolaversa, dunyoda sodir bo‘layotgan turli inqirozlar, urush va nizolar, iqlim o‘zgarishlaridan, birinchi navbatda, ayollar va bolalar aziyat chekmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozir shu kabi ta’sirlar va kambag‘allik 158 mln. nafar xotin-qiz hayotini izdan chiqargan. Ayni paytda dunyoda har uchinchi ayol uyda, jamoat joylarida, ishxonasida yoki media maydonda tazyiq va zo‘ravonlikka uchramoqda. Ayrim davlat va jamiyatlarda hamon qarorlar qabul qilishda xotin-qizlar ishtiroki juda kam. Ishlayotgan ayollar ham erkaklarga nisbatan 20 foiz kam maosh oladi.

Ayni chog‘da ularning ish sharoiti, ijtimoiy muhofazasi, mehnat qilish huquqlarining kafolatlari ham talabga javob bermaydi. Bu, ayniqsa, dunyo miqyosida norasmiy iqtisodiyotda band bo‘lgan 60 foiz ayollar hayotiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Vaholanki, uyda va jamiyatda haq to‘lanmaydigan ishlarning 75 foizi ayollar zimmasiga tushadi. Har yili dunyo bo‘ylab 585 mingdan ziyod ayollar homiladorlik bilan bog‘liq asoratlar, 300 mingdan ko‘pi kontratseptiv vositalardan noto‘g‘ri foydalanish tufayli vafot etadi. Ta’lim olish huquqidan mahrum bo‘lgan, savodsizlikdan aziyat chekayotgan qizlar soni esa 600 mln.dan oshadi. Ayni statistik ma’lumotlar xalqaro miqyosda ushbu holatga e’tibor berishni talab qiladi.

Osiyo ayollari forumi gender tenglikka erishishni tezlashtirish va kambag‘allikni bartaraf etish orqali xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga kuchli turtki beradi. Zero, butun dunyoda ayollarning, xususan, qiz bolaning o‘qib, oliy ma’lumotli bo‘lishi, kasb-hunar egallashi oila baxti, farzandlar kamoli, shu asosda butun jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Samarqand forumi barqaror rivojlanish bo‘yicha belgilangan 17 maqsad ichida gender tenglikni ta’minlash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Zero, Barqaror rivojlanish maqsadlarining birortasiga gender tenglikni hisobga olmasdan erishib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda Osiyo mintaqasining jahon taraqqiyotida tutgan o‘rni tobora ortib bormoqda. Jumladan, dunyo iqtisodiyotida eng katta ulushga ega davlatlar aynan Osiyo mintaqasida joylashgan. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va boshqa ko‘plab sohalar jadal rivojlanmoqda. Albatta, taraqqiyotning bunday yuksak darajasiga erishishda ayollarning rolini, ularning katta hissasini inkor etib bo‘lmaydi.

Shu ma’noda aytsak, Osiyo qit’asi mamlakatlari xotin-qizlar haq-huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va gender tenglikni ta’minlash borasida o‘zining boy tajribasiga ega. Shuning uchun ham Osiyo davlatlarining yetakchi xotin-qizlari mazkur sohadagi mavjud muammo va masalalarni ko‘rib chiqish, bir-biridan ijobiy tajribalarni o‘rganish, muhim bo‘lgan qarorlarni qabul qilish va do‘stona munosabatlarni o‘rnatish maqsadida Samarqandda yig‘ildi.

Bu har tomonlama va barcha uchun birdek manfaatli hamda foydali bo‘ldi, desak, ayni haqiqatdir.

Gulnora ABDURAHMONOVA,
TDIU prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Namangan — Chodak — Namangan yo‘nalishi bo‘yicha shaharlararo yo‘lovchi poyezdi qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2024-yil 17-may

DORILAMON KUNLAR KELDI

“Mehr va muruvvat” jamoat fondi raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Aziz Oppoqovich To‘rayev tirik tarixga mengzagulik insonlar sirasiga kiradi. Kamtarlik, odamoxunlik singari yuksak insoniy fazilatlar, keng dunyoqarash, ilmu ma’rifat, adabiyot-san’atga xayrixohlik qariyb to‘qsonni qoralayotgan bu insonning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy hayotimizda kechayotgan jarayonlarga jonkuyar munosabatida ham namoyon bo‘lib turadi. Yillar davomida turli rahbarlik lavozimlarida qanchadan-qancha savobli ishlarni amalga oshirganiga, shogirdlar tarbiyalaganiga, o‘zbek madaniyati taraqqiyotida sezilarli iz qoldirganiga qaramay, iddaodan yiroq domla, hali qiladigan ishlarimiz ko‘p, deydi.

“Xalq so‘zi” gazetasi uchun Aziz To‘rayev bilan ikki davr — mustabidlik intihosi va mustaqillik ibtidosini nainki ijodida, balki o‘z Shaxsida ham mujassamlashtirgan o‘zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva tavalludi kuni munosabati bilan eksklyuziv intervyu uyushtirmoqchi bo‘lganimizda, “Halimaxon xalqimiz orasidan yetishib chiqqan talant sohibasi, o‘zbek xalqi kuychisi, uning hayoti va ijodi adabiy jarayon uchungina ahamiyatli bo‘lib qolmay, jahon ahliga bizning ma’naviy qiyofamiz haqida ham bemalol darak bera oladi” deya, savollarimizga bajonidil javob berishga rozilik bildirdi.

Bizning suhbat

— Halima Xudoyberdiyeva bilan birinchi marta qachon uchrashgansiz?

— O‘tgan asrning oltmishinchi yillari boshida. Adashmasam, o‘shanda Halimaxon o‘n — o‘n ikki yoshlardagi qizaloq edi.

— Bu voqea qanday sodir bo‘lgan?

— Gapni sal olisdan boshlaydigan bo‘lsam, men Bo‘stonliq tumanida tug‘ilganman. Ona ohanrabo bo‘lar ekan. 1956-yili Toshkentdagi pedagogika texnikumini tamomlab, tug‘ilgan joyimga borganimda meni o‘ziga chorlab turadigan ana shu ohanrabom, onajonim bu hayotni tark etgan edi. Boyovut tumaniga yo‘llanma berilgan, endi qayoqqa borib ishlasam ham, unchalik farqi yo‘qday ko‘rindi. Va ushbu tumanga kelib, 4-Boyovut sovxozidagi 47-maktabda oddiy o‘qituvchilikdan ish boshladim. Hozir yangi O‘zbekiston davrida Sirdaryo sanoatlashgan, har tomonlama taraqqiyot sari yuz tutgan viloyat ekani ma’lum. U davrlarda sharoit boshqacha edi. Shafqatsiz shamol, ko‘z ochirgani qo‘ymaydigan chang-to‘zon, cho‘lni o‘zlashtirishga umumittifoq darajasida kirishilgan edi. Sobiq ittifoqning turli hududlaridan mutaxassislar, ayniqsa, yoshlar oqib kelishardi. 1959-yilda meni tuman yoshlariga yetakchi qilib saylashdi. Tadbirlar, konferensiyalar o‘tkazardik, yoshlarda romantik ruh kuchli edi. Oradan to‘rt yil o‘tib, oblast (viloyat) komsomol komitetiga ishga o‘tdim. Qishloqlar qoloq, xo‘jaliklar rivojlanmagan, tog‘ qishloqlaridan ko‘chib kelgan oilalarni, ayniqsa, yoshlarni ko‘niktirish kerak. Tez-tez yoshlar konferensiyalari o‘tkazib turilardi. Halimaxonni ana shunday anjumanlarning birida uchratdim, u Boyovutning unchalik rivojlanmagan xo‘jaligidan konferensiyaga qatnashish uchun maktab tomonidan yuborilgan yosh shoira ekan. Halimaxon bu tadbirda o‘zi yozgan she’rni o‘qib berib, ishtirokchilarning olqishini olgan edi.

— Qanaqa she’r edi?

— Bunisi yodimda yo‘q. Ammo Halimaxonning ovozidagi boshqalarga o‘xshamagan o‘ziga xos ohang ishtirokchilarni maftun etganini eslayman. U o‘sha davrdagi hamma qishloq qizlari kabi odmi kiyimda edi. Ammo “qirqta qilib o‘rilgan” majnuntol novdalariday sollanib turgan kokillari uni qalbga yaqin qilib ko‘rsatardi.

Qaysi sohada bo‘lmasin, oddiy xalq orasidan ulug‘ insonlar yetishib chiqqanini tarix isbotlagan. Bu bejiz emas. Tuzumlar, davrlar o‘zgargani bilan o‘zbek xalqi genofondidagi favqulodda salohiyat hech qachon yo‘qolib ketmagan. Menimcha, o‘tgan asrning 60-yillarida Halima Xudoyberdiyeva ana shu genofonddan nish urgan toza g‘uncha bo‘lgan. O‘sha vaqtda respublika rahbarligidan bo‘shatilgan Usmon Yusupov ham Boyovutdagi qoloq bir xo‘jalikka yetakchilik qilardi. 1959 — 1961-yillar davomida tuman yoshlarining rahbari sifatida ish yuzasidan u kishi bilan tez-tez uchrashib, muloqot qilib turardim. Xalq Usmon Yusupovni behad yaxshi ko‘rardi, “Ota” deb ulug‘lardi. Qand kasali bo‘lgani uchun Usmon otaning stolida hamisha choynak to‘la ko‘k choy turardi. U kishi yoshlar tarbiyasi, ularni qo‘llab-quvvatlash kerakligi haqida ko‘p ta’kidlardi. To‘g‘rilik, odamiylik, cho‘lni qanday obod qilish borasida Usmon ota bu yerlarda katta ishlarni amalga oshirdi. Halima Xudoyberdiyeva ana shu muhitda ulg‘ayib, yetuk shoira bo‘lib yetishdi.

— Ta’bir joiz bo‘lsa, sizlarning ko‘z o‘ngingizda. Shunday emasmi?

— Albatta. Markazqo‘mdagi vazifam ham adabiy jarayondan xabardorlikni taqozo etardi. Halima Xudoyberdiyeva o‘zbek she’riyatiga yonib kirib keldi, uning xalqona ohanglardagi samimiy satrlari to‘g‘ri qalblarga yetib borardi. Gapni cho‘zmaslik uchun, ulardan misollar keltirib o‘tirmayman. “Biladigan o‘zi biladi, bilmaydiganga foydasi yo‘q” deyishgan-ku. Xullas, yoshlar Halima Xudoyberdiyevani davralarda intiq kutishar, uning yangi yozgan she’rlarini siyohi qurimayoq ixlosmandlari yodlab olishib, hatto ovoziga ham taqlid qilgan holda o‘qib yurishardi. U mahallarda she’rparastlar ko‘p edi, she’riy to‘plamlar ham shunga yarasha o‘n minglab nusxalarda chop etilardi. Halima Xudoyberdiyevaning ham kitoblari shunaqa bo‘ldi, hatto rashkdanmi-boshqa sababdanmi bilmadimu, uning qayerdan, qanday kelib qolganini so‘rab-surishtirgan holda qildan qiyiq axtaradigan “shunoslar” ochiq aytmasa-da, unga tekkizib nimalarnidir g‘ingshiy ham boshlashdi. Halima Xudoyberdiyeva esa she’riyat osmonida so‘nmas yulduz kabi tobora yorqinroq nur sochib, qalblarni yorishtirardi. Bu juda ulug‘ a’mol.

— Demak, unga barcha yo‘llar ochiq bo‘lgan?

— Yo‘q, aksincha, u oila qurganida ham o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida qattiq ishlash bilan bandligidan, boshqa yo‘llar haqida o‘ylashga vaqti bo‘lmagan. O‘sha paytda Oliy ta’lim vazirligida ishlayotgan turmush o‘rtog‘i, keyinchalik davlat va jamoat arbobi bo‘lib yetishgan iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mavlon Umrzoqov bilan bolalari ko‘payishganda ham ijarama-ijara ko‘chib yurishgan.

Hali aytganimdek, Boyovutdagi faoliyatim tufayli biz Halima Xudoyberdiyevaga katta umid bilan qarardik, tumanimiz shuhratini dunyoga yoyishiga ishonardik. Og‘aini, qavmu qarindosh kabi oilaviy bordi-keldi qilardik. U taniqli shoira ekanida Moskvadagi adabiyot institutiga o‘qishga bordi. Uni bitirib kelganida bir kuni turmush o‘rtog‘i bilan bolalarini yetaklab uyimizga kelib qolishdi. Biz ularni xushnud kutib oldik. Gapdan gap chiqib, ularning shart-sharoitidan xabardor bo‘ldim. Juda qiynalib ketishibdi. Ularni kuzatgach, ertasi kuni o‘sha paytlardagi Toshkent shahar ijroiya qo‘mitasi raisi Vohid Kozimovga qo‘ng‘iroq qilib, bu haqda so‘z ochdim. U hatto biroz hayron ham bo‘lib qoldi. Nega deganda, ijroqo‘m raisi Halima Xudoyberdiyeva degan mashhur shoirani yaxshi bilgani holda uning qanday sharoitda yashashidan xabarsiz ekan. Ko‘p o‘tmay, ularning oilasi yangi uy-joy bilan ta’minlandi.

> *“Halima Xudoyberdiyevaning she’rlaridagi vatanparvarlik jonfidolik, mardonavorlik ma’nosiga uyqash. She’r ruhi lahzada sizni zabt etadi. Ehtiroslarning guvlab, toshib kelgan oqimi qa’riga tortib ketadi”.*
>
> **Abdulla ORIPOV,**
> **O‘zbekiston Qahramoni.**

— O‘quvchilik kezlaridayoq Halima Xudoyberdiyevaga Sharof Rashidovning nazari tushgan deyishadi...

— Respublika rahbari sifatida Sharof Rashidovichning tashvishi qanchalik ko‘pligiga qaramasdan, u kishi adabiyotdagi “yilt” etgan uchqunni ham nazardan qochirmasdi. Bir gal xizmat safari bilan borganida Sirdaryo viloyati gazetasida chop etilgan Halima Xudoyberdiyeva she’rlariga ko‘zi tushib qoladi. O‘ziga hamroh bo‘lib yurgan viloyat rahbariga bu she’rlarni ko‘rsatib, u haqda so‘rab-surishtiradi, hali o‘quvchi ekanini bilib, kelajakda undan ulug‘ ijodkor chiqishini bashorat qiladi, e’tibordan qochirmaslik kerakligini tayinlaydi. U kishi ijodkorlar, ilm ahli holidan xabardor bo‘lib yurishni rahbarlik faoliyatining eng muhim qismi deb hisoblardi. Bizni ham shunday qilishga da’vat etardi. O‘sha mahallarda endi-endi adabiyot maydoniga kirib kelgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi yoshlarga munosabatda ham shunday bo‘lgan.

— Ular bunday yuksak e’tiborga qanday munosabatda bo‘lishgan?

— Mas’uliyat bilan. Ha, mas’uliyat bilan. E’tibor baland bo‘lsa-yu, ijodkorda shaxsiy mas’uliyat bo‘lmasa, kutilgan natija yuzaga kelmaydi. Ijodkorlar o‘z xalqining qiyofasini aks ettiradi. Boshqalar ularga qarab, o‘sha xalqlarga baho berishadi. Men bu ikki ulug‘ shoir bilan do‘stona aloqada edim. Erkin Vohidov bilan shaxmat surishayotgan juda ko‘p vaqtlarimizda hayot, jamiyat, odamlar haqidagi mulohazalarini tinglaganman. Chingiz Aytmatov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirovni bilardim. Bu yuksak iste’dod sohiblarining barchasi oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan, chekka hududlarda, tog‘u toshlarda, dashtu dalalarda, qishloqlarda aholi qanday nafas olyapti, nimalardan qiynalib, qanday orzu-umidlar bilan yashayapti — buni bilib, his etib turishardi. Halima Xudoyberdiyeva ham bu noyob fazilatni o‘ziga shior qilib olgan ijodkor edi.

Sharof Rashidov vafotidan keyin Halima Xudoyberdiyeva unga atab “Alvido, otajonim” degan she’r bitdi. Ancha uzun bu she’rda “Yuraklarga qulagan eng yuksak tog‘...” degan so‘zlar, nazarimda, Halima Xudoyberdiyeva o‘zi e’zozlaydigan Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Agar o‘lsam, aslo qora tuproqdan axtarmang, Yasharman ahli orif ko‘nglin mangu makon aylab”, degan satrlariga uyqash ohangda, ezgu ishlar zavol bilmasligiga, yaxshi insonlar nomi xalq qalbida abadiy saqlanib qolishiga qat’iy ishonch edi. Bunday ishonch hayotni go‘zallashtiradi. Fidoyi, ammo o‘z haqini talab qila olmaydigan odamlarga e’tibor qaratish lozimligini uqtirib turadi. Qarama-qarshiliklarga to‘la hayotning qorong‘i tomonlarini yoritadi. Uning adolatini yuzaga chiqaradi. Haqiqatan ham, qirq yil avval shoira aytgan bashorat amalda o‘z isbotini topdi. Sharof Rashidovni xalq o‘z yuragida asrab qolgani ayon bo‘ldi. Uning ezgu, savobli ishlarini xalqimiz unutmadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich tashabbusi bilan Sharof Rashidov xotirasi uchun amalga oshirilgan ishlar bu ulug‘ insonning o‘zbek xalqi yuragidan joy olganini isbotladi.

— Eshitishimga qaraganda, bu she’rni yozishga shoirani siz da’vat etgan ekansiz. Hatto she’r qo‘lyozmasini o‘ttiz sakkiz yildan keyin uning oilasiga topshirgan ekansiz.

— Ha, shunaqa bo‘lgan. O‘zimda nusxasini olib qoldim. Sharof Rashidovga va yuksak iste’dod sohibasi Halima Xudoyberdiyevaga cheksiz hurmat-ehtiromim tufayli, men bu she’r qo‘lyozmasini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylab, ahyon-ahyonda olib o‘qir edim. Shunda ko‘z o‘ngimda talato‘p davrlar, hayotining so‘nggi yillarida va o‘limidan keyin Sharof Rashidovga nisbatan qilingan nohaq ishlar, Halima Xudoyberdiyevaga nisbatan noto‘g‘ri munosabat ko‘z o‘ngimdan o‘tar edi. Endi ular ikkisi ham oramizda yo‘qligini o‘ylar edim. Bu hayotda inson nima uchun yashaydi? Xalq kim? U kimni boshga ko‘tarib, kimni e’zozlaydi? Bu kabi murakkab savollarga to‘qnash kelmasdan burun inson to‘g‘ri yo‘ldan adashmasligi kerakligini Halima Xudoyberdiyeva jasorat bilan, matonat bilan o‘z hayoti misolida isbotlab o‘tdi. To‘g‘ri, unga oson bo‘lmadi. Ammo u iztiroblar maydonidan vijdonini, imonini pok olib o‘ta oldi. Bunday kuchli ijodkor, kuchli Shaxs bizni faxrlantiradi. Xalqning kuchini, xalqning qudratini ifoda etadi. Mana, bizda shunaqa shoira bor, shunaqa Shaxs bor deb bemalol ayta olishimizga imkon yaratadi.

Davlat rahbari sifatida faoliyatini boshlagan kezlardayoq Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Halima Xudoyberdiyevaning yuksak iste’dod sohibasi ekanini e’tirof etdi. Xotin-qizlarga mo‘ljallangan yangi zamonaviy jurnal ochilishi tashabbusini ilgari surib, unga Halima Xudoyberdiyeva rahbarlik qilishi taklifini bildirdi. Halima Xudoyberdiyeva yangi kuch-g‘ayrat, ilhom bilan ish boshlab, “Dugonalar” jurnalini chiqara boshladi. Shavkat Mirziyoyev, umuman olganda, adabiyot va san’atga, ilm ahliga, ziyolilarga munosabat masalalarida Sharof Rashidov boshlab bergan ishlarni yanada yuksak darajaga olib chiqdi. Iste’dodlarni asrash, ularni qo‘llab-quvvatlash borasida juda ko‘p ishlar qilindi. Poytaxtimiz markazida Adiblar xiyoboni barpo etilishi, ijodkorlarga yodgorlik haykallari o‘rnatilishi, shu yerning o‘zida Yozuvchilar uyushmasining yangi binosi, uncha uzoq bo‘lmagan joyda ular uchun uy-joylar qurib berilishi shular jumlasidan.

Afsuski, o‘zbek xalqining kuychisi Halima Xudoyberdiyeva bunday imkoniyatlar davrida yayrab-yashnab ijod qilishiga bevaqt o‘lim xalaqit berdi. Shoira vafotidan so‘ng uning ijodiga e’tibor yana kuchaydi, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Guliston shahrida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ona tili va adabiyot fanini chuqur o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etildi, yodgorlik haykali o‘rnatildi, kitoblari qayta-qayta chop qilinmoqda. Uning o‘zbek adabiyoti uchun tobora ahamiyat kasb etib borayotgani xalqimizning azaliy qadriyatlari, urf-odatlari, turmush tarzi asosida shakllangan shaxsiyatida ham namoyon bo‘lgan edi. Hech kimga sir emas, qishloq manzillarida ota-onalar qizlari uzatilgan joyda tinchib ketishini niyat qilib, shunga yarasha ibratli ta’lim-tarbiya berishadi. Tandir-o‘choqqa o‘t yoqib, non yopishdan sigir sog‘ishgacha ro‘zg‘or ishlariga o‘rgatishib, borgan joyida tosh qotsin, deyishadi. Halima Xudoyberdiyeva ana shu muhitda o‘sib, Xudo bergan iste’dodini o‘qib-izlanish orqali kamolotga yetkaza olgan edi. Shunisi bilan xalqimiz mehr-muhabbatini qozongan edi. Bu uning “Onaginam, dorilamon kunlar keldi...” degan mashhur satri bilan boshlanadigan she’ridagi:

Bog‘lardagi yetilgusi har mevali shox,
Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinjliqdir.
O‘g‘lonlaring kelar, ana, ochishib quchoq,
O‘g‘lonlaring meva qadar bir shirinlikdir,

satrlaridan tortib:

Bobolarim birin-ketin suyak surib o‘tgan Yer,
Momolarim sochlarini qirqta o‘rib o‘tgan Yer,

degan, asrlar qa’ridan kelayotgandek tuyulgan qadimiy ohanglarning navosi kabi otash qalb qa’ridan otilib chiqqan alangali yolqinlarda ayon ko‘rinib turadi.

Shoyim BO‘TAYEV
suhbatlashdi.

> **Halima XUDOYBERDIYEVA degandi:**
>
> *“She’riyatga borlig‘ini bag‘ishlagan inson hayotni chuqur anglab, uni yanada yaxshi ko‘rib boraveradi. Umrim davomida turli sinovlarga duch keldim. Lekin ijoddan to‘xtaganim yo‘q. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga adabiyotga, yozuvchi va shoirlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratayotgan alohida g‘amxo‘rligi, kamtarin mehnatlarimni yuqori baholab, Vatanimizning yuksak mukofoti — “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlagani uchun chin dildan minnatdorlik bildiraman”.*
>
> *“Biz, onalar, bor imkoniyatimiz bilan tuprog‘ida otamiz, onamiz, qolaversa, buyuk ajdodlarimiz yotgan shu Vatanga bolalarimiz yuragini mehr-muhabbat rishtalari bilan chambarchas bog‘lashimiz kerak. Shunda kelajagimiz, qolaversa, farzandlarimiz kelajagi, albatta, buyuk bo‘ladi”.*
>
> *“Ijodkor qaysi davrda yashamasin, shu davr ta’siri uning ijodida aks etmay qolmaganidek, o‘zi ham yashayotgan muhitiga ijobiy ta’sir eta olish qudratiga ega bo‘lishi lozim. Shu davr odamlari ruhiyatiga, yuragiga ezgulik urug‘ini sochish haqiqiy ijodkorning ishi hisoblanadi”.*

SPORT xabarlari

ABDULLA PARIJ OLIMPIADASIGA BORADI

Kecha poytaxtimizda sport gimnastikasi bo‘yicha yoshlar va kattalar o‘rtasida Osiyo chempionati boshlandi. Unda 23 mamlakatdan jami 150 nafarga yaqin atletlar qit’a g‘olibligi uchun kuch sinashmoqda.

Quvonarlisi, musobaqaning dastlabki kuni yurtimiz vakillari uchun omadli keldi. Kattalar bahslari bo‘yicha yakkalik yo‘nalishining ko‘p kurash dasturida “Parij — 2024” Olimpiadasining yagona yo‘llanmasi O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi Abdulla Azimovga nasib etdi. Sportchimiz o‘z chiqishi orqali jami 82.431 ball jamg‘arib, Osiyo championatining bronza medalini qo‘lga kiritdi. Qit’a turnirining birinchi va ikkinchi o‘rin egalari hisobida Olimpiada yo‘llanmasi bo‘lgani bois yurtdoshimiz ushbu litsenziyaga ega chiqdi.

Musobaqa doirasida 16 — 19-may kunlari erkaklar, 24 — 26-may kunlari ayollar toifasidagi bahslar o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

YURTDOSHIMIZ — QIT’A MUSOBAQASI SOVRINDORI

Shu kunlarda Vyetnamning Da-Nang shahrida taekvondoning WT yo‘nalishi bo‘yicha kattalar o‘rtasida 26-Osiyo chempionati bo‘lib o‘tmoqda. Musobaqada O‘zbekiston erkaklar va ayollar terma jamoalari ham jami 16 ta vazn toifasida qit’a chempionligi uchun kurash olib boryapti.

54 kilogrammgacha vazn toifasida ishtirok etgan yosh sportchimiz Jahongir Xudoyberdiyev qit’a chempionatidagi ilk ishtirokidayoq sovrindor bo‘lib, bronza medalni qo‘lga kiritdi. Saralash bahslarida Yaponiya va Tailand vakillarini mag‘lub etgan sportchimiz yarimfinalda pokistonlik Shahzaib Xanga imkoniyatni boy berdi.

Eslatib o‘tamiz, Osiyo chempionatida Nikita Rafalovich, Svetlana Osipova singari mahoratli taekvondochilarimiz ham yurtimiz sharafini himoya qiladi.

BOKSCHI QIZLARIMIZ BO‘SH KELISHMAYAPTI

Avval xabar berilganidek, Rossiyaning Xabarovsk shahrida Konstantin Korotkov xotirasiga bag‘ishlangan xalqaro turnir davom etyapti.

Musobaqaning qizlar bahsida ringga ko‘tarilgan 4 nafar bokschimiz o‘z raqiblarini mag‘lubiyatga uchratib, keyingi bosqichga yo‘l oldi.

Xususan, Robiyaxon Baxtiyorova (50 kg.gacha vazn toifasida) Yekaterina Molchanovani (Rossiya), Aziza Yoqubova (54 kg.gacha vazn toifasida) Belarus Respublikasi bokschisi Uliya Apanasovichni, Dilfuza Bekova (66 kg.gacha vazn toifasida) rossiyalik Anjelina Ganukovani, Aziza Dayirbekova (75 kg.gacha vazn toifasida) Anna Maksimovani (Rossiya) hech qanday imkoniyat qoldirmay mag‘lub etdi.

“Xalq so‘zi”.

Bunyodkorlik

YER OSTI YO‘LI QURILMOQDA

Andijon viloyatining har bir shahar va tumanlarida aholiga qulaylik yaratish maqsadida bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Xo‘jaobod dehqon bozori oldida yer osti yo‘li qurilyapti.

— Ushbu manzil Xo‘jaobod tumani markazida joylashgan bo‘lib, mamlakatimizni Qirg‘iz Respublikasi bilan bog‘lab turuvchi xalqaro ahamiyatdagi yo‘l hisoblanadi, — deydi “O‘zyo‘lko‘prik” klasteri Andijon filiali rahbari o‘rinbosari Abduxanon Mirzayev. — Bu yerda bir kunda 35 ming avtomobil, 80 ming nafar piyoda harakatlangani bois tirbandliklar kuzatilmoqda. Qulaylik yaratish maqsadida uzunligi 48 metr, eni 4 metrdan iborat yer osti yo‘li qurilyapti.

20 nafar ishchi va 10 dan ziyod texnik vositalar yordamida barpo etilayotgan ushbu loyiha qiymati 1 milliard 750 million so‘mni tashkil qiladi. Bunyodkorlik ishlari yil yakuniga qadar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Saminjon HUSANOV
(“Xalq so‘zi”).

O‘zbekistonda “Haj — 2024” mavsumi 23-maydan boshlanadi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 00.30 Topshirildi — 02.00 1 2 3 4 5 6